



Navruz XUDAYBERGANOV,  
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ma'mun universiteti dotsenti N.Jumaniyazova taqrizi asosida

### GENDER DIFFERENCES IN THE MANIFESTATION OF PSYCHOLOGICAL INDEPENDENCE AND DEPENDENT BEHAVIOR AMONG STUDENTS

Annotation

This article empirically analyzes gender differences in the manifestation of psychological autonomy and addictive behavior among students. In the course of the study, the methods of V.G. Lozovaya, A. Karabanova, and N. Poskrebysheva were applied, and the results obtained were statistically evaluated based on the Mann-Whitney U-test. According to the results, it was found that socio-behavioral addictions (alcohol, tobacco, internet) predominate in men, while drug addiction and features related to emotional components are high in women.

**Keywords:** psychological autonomy, addictive behavior, gender differences, emotional autonomy, cognitive autonomy, behavioral autonomy, value autonomy, psychological diagnostics.

### ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ В ПРОЯВЛЕНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АВТОНОМИИ И АДДИКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье эмпирически проанализированы гендерные различия в проявлении психологической автономии и аддиктивного поведения у студентов. В процессе исследования использовались методики В.Г. Лозовой, А. Карабановой и Н. Поскребышевой, а полученные результаты были статистически оценены на основе U-критерия Манна-Уитни. Согласно результатам, у мужчин преобладают социально-поведенческие аддикции (алкоголь, табак, интернет), а у женщин - лекарственная зависимость и особенности, связанные с эмоциональными компонентами.

**Ключевые слова:** психологическая автономия, аддиктивное поведение, гендерные различия, эмоциональная автономия, когнитивная автономия, поведенческая автономия, ценностная автономия, психологическая диагностика.

### TALABALARDA PSIXOLOGIK AVTONOMIYA VA ADDIKTIV XULQ-ATVORNING NAMOYON BO'LISHIDA GENDER FARQLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada talabalarda psixologik avtonomiya va addiktiv xulq-atvorning namoyon bo'lishida gender farqlari empirik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida V.G. Lozovaya hamda A. Karabanova va N. Poskrebysheva metodikalari qo'llanilib, olingan natijalar Mann-Uitni U mezoni asosida statistik jihatdan baholandi. Natijalarga ko'ra, erkaklarda ijtimoiy-xulqiy addiksiyalar (spirtli ichimlik, tamaki, internet) ustunligi, ayollarda esa dori-darmonlarga qaramlik va emotsional komponentlar bilan bog'liq xususiyatlar yuqoriligi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** psixologik avtonomiya, addiktiv xulq-atvor, gender farqlar, emotsional avtonomiya, kognitiv avtonomiya, xulq-atvor avtonomiyasi, qadriyatlar avtonomiyasi, psixologik diagnostika.

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli ijtimoiy, madaniy va axborot oqimlarining kuchli ta'siri natijasida ularning xulq-atvori va psixologik rivojlanishida murakkab jarayonlar yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, talaba yoshlar orasida addiktiv xulq-atvor (internetga qaramlik, psixoaktiv moddalar iste'moli, zararli odatlar)ning keng tarqalishi zamonaviy psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu holatlarning psixologik mexanizmlarini chuqur o'rganish va ularni oldini olish yo'llarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham yoshlar tarbiyasi va ularning sog'lom psixologik rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Xususan, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoshlar siyosatiga oid qaror va farmonlarda barkamol avlodni tarbiyalash, ularning zararli odatlardan himoya qilish, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [1]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qarorlari yoshlar orasida deviant va addiktiv xulq-atvorni profilaktika qilishning tizimli asoslarini yaratib bermoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Psixologiya fanida psixologik avtonomiya tushunchasi shaxsning mustaqil qaror qabul qilish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish va ichki nazoratga ega bo'lish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Edvard Detsi va Richard Rayan tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasiga ko'ra, avtonomiya insonning asosiy psixologik ehtiyojlaridan biri bo'lib, uning qondirilishi shaxsning ichki motivatsiyasi va psixologik farovonligini ta'minlaydi [3]. Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida esa mustaqillik va identifikatsiya jarayonlari shaxs rivojlanishining muhim bosqichlari sifatida ko'riladi [4].

Shuningdek, Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida shaxsning o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyati uning avtonomiyasi bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi [2]. Addiktiv xulq-atvor masalalari esa Mark Griffiths, V. D. Mendeleevich va Z. Freyd kabi olimlar tomonidan turli yondashuvlar asosida o'rganilgan bo'lib, ular addiksiyani shaxsning ichki muammolaridan qochish, psixologik himoya mexanizmi yoki kompensator xulq sifatida izohlaydilar.

Mazkur muammoning muhim jihatlaridan biri - psixologik avtonomiya va addiktiv xulq-atvorning namoyon bo'lishida gender farqlarning mavjudligidir. Chunki erkak va

ayol talabalar psixologik xususiyatlari, emotsional reaksiyalari va ijtimoiy rollari bilan farqlanib, bu holat ularning addiktiv xulq shakllanishiga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, ushbu tadqiqotning maqsadi talabalarda psixologik avtonomiya va addiktiv xulq-atvorning namoyon bo'lishida gender farqlarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Psixologik avtonomiya va uning tuzilishi. Psixologik avtonomiya shaxsning ichki mustaqilligi va o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy psixologik yondashuvlarga ko'ra, avtonomiya ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, u quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

emotsional avtonomiya - shaxsning hissiy jihatdan boshqalarga qaram bo'lmashligi

kognitiv avtonomiya - mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati

xulq-atvor avtonomiyasi - o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish

qadriyatlar avtonomiyasi - shaxsiy e'tiqod va qadriyatlarining mustaqilligi

Mazkur komponentlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, shaxsning umumiy psixologik barqarorligini ta'minlaydi.

Addiktiv xulq-atvorning psixologik xususiyatlari. Addiktiv xulq-atvor shaxsning turli modda yoki faoliyatlarga haddan tashqari bog'lanib qolishi bilan tavsiflanadi [5]. Bunday xulq shakllanishida quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

emotsional muvozanatsizlik  
stress va muammolardan qochish tendensiyasi  
past darajadagi o'zini boshqarish qobiliyati  
ijtimoiy muhit ta'siri

Psixoanalitik yondashuvga ko'ra, addiktsiya ichki ziddiyatlarning natijasi bo'lsa, ijtimoiy-kognitiv nazariyada u o'rganilgan xulq sifatida talqin qilinadi.

**Tahlil va natijalar.** Gender omili psixologik jarayonlar va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki erkaklarda ko'proq xulq-atvoriy va modda bilan bog'liq addiktsiyalar uchrasa, ayollarda esa emotsional bog'liqlik va ichki kechinmalar bilan bog'liq addiktsiyalar ustunlik qilar ekan. Shuningdek, erkaklar ko'proq tashqi muhit ta'siriga berilsa, ayollar emotsional omillarga sezgirroq bo'ladi.

Keling endi ushbu addiktiv xulq-atvoriga hos xususiyatlarni namoyon bo'lishida gender farqlarni quyidagi jadval asosida empirik jihatdan tahlil qilsak (1-jadval).

1-jadval

V.G. Lozovaya metodikasi bo'yicha addiktiv xulq-atvor ko'rsatkichlarining gender farqlar bo'yicha tahlil (Mann Uitni n=265)

|  | Jinsi | N   | O'rtacha rang | U<br>(manuitni mezon) | P       |
|--|-------|-----|---------------|-----------------------|---------|
| Spirтли ichimlik iste'moliga moyillik    | erkak | 96  | 158.4         | 6123.5                | 0,004** |
|  | ayol  | 169 | 118.7         |                       |         |
|  | Jami  | 265 |               |                       |         |
| Dori-darmonlarga qaramlik                | erkak | 96  | 127.5         | 7421.0                | 0,017*  |
|  | ayol  | 169 | 140.2         |                       |         |
|  | Jami  | 265 |               |                       |         |
| Kompyuter-internetga qaramlik            | erkak | 96  | 150.6         | 6689.4                | 0,012*  |
|  | ayol  | 169 | 122.3         |                       |         |
|  | Jami  | 265 |               |                       |         |
| Tamaki mahsulotlarini chekishga moyillik | erkak | 96  | 155.8         | 6298.2                | 0,003** |
|  | ayol  | 169 | 119.6         |                       |         |
|  | Jami  | 265 |               |                       |         |
| Giyohvand moddalariga qaramlik           | erkak | 96  | 142.1         | 7310.6                | 0,064   |
|  | ayol  | 169 | 126.4         |                       |         |
|  | Jami  | 265 |               |                       |         |

Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01.

Mazkur jadval V.G. Lozovaya metodikasi asosida talabalarda addiktiv xulq-atvor ko'rsatkichlarining gender farqlarini Mann Uitni U mezoni yordamida aniqlash natijalarini ifodalaydi. Tadqiqotda jami 265 nafar talaba ishtirok etgan bo'lib, ulardan 96 nafari erkak va 169 nafari ayol respondentlardir. Olingan natijalar turli addiktiv xulq shakllarining gender jihatdan qanday namoyon bo'lishini tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, spirtli ichimlik iste'moliga moyillik shkalasi bo'yicha erkak va ayol talabalar kesimida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (U=6123,5; p<0,01). Mazkur holat erkak talabalar orasida spirtli ichimliklarga moyillik va shu bilan bog'liq riskli xulq shakllari ko'proq uchrashini ko'rsatadi. Bu natijani ijtimoiy stereotiplar, guruh bosimi va erkaklarga xos riskka moyillik bilan izohlash mumkin.

Bu natija bir nechta omillar bilan izohlanadi, birinchidan, jamiyatda erkaklar uchun spirtli ichimlik iste'moli ko'proq ijtimoiy maqbul holat sifatida qabul qilinadi, ayollarda esa bu holat ko'proq cheklanadi. Ikkinchidan, erkaklarda riskka moyillik va yangilikni sinab ko'rishga intilish kuchliroq bo'ladi. Uchinchidan, tengdoshlar ta'siri erkaklarda kuchliroq namoyon bo'lib, guruh ichida o'zini ko'rsatish ehtiyoji ichkilikka moyillikni oshiradi. Shu sababli erkaklarda bu ko'rsatkich yuqori chiqishi tabiiy ilmiy holat hisoblanadi.

Ikkinchi shkala ya'ni Dori-darmonlarga qaramlik shkalasi bo'yicha ham erkak va ayol talabalar kesimida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi (U=7421,0; p<0,05). Tahlilga ko'ra, ayol talabalarining o'rtacha rangi (140.2) erkaklarinikiga (127.5) nisbatan yuqoriroq bo'lib, bu ayollarda dori-darmonlarga qaramlikka moyillik nisbatan kuchliroq ekanligini anglatadi. Mann Uitni mezonida o'rtacha rang qancha yuqori bo'lsa, shu guruhda o'rganilayotgan ko'rsatkich shuncha yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Ushbu holatni bir nechta psixologik va ijtimoiy omillar bilan izohlash mumkin. Avvalo, ayollarda emotsional sezgirlik, tashvish va stressga beriluvchanlik darajasi yuqoriroq bo'lgani sababli ular psixologik noqulaylikni kamaytirish uchun dori vositalariga murojaat qilishga moyil bo'ladi. Bu esa vaqt o'tishi bilan psixologik bog'liqlikni shakllantirishi mumkin.

Shuningdek, ayollar o'z sog'lig'iga nisbatan mas'uliyatliroq bo'lib, turli jismoniy yoki ruhiy noqulayliklarda tez-tez dori vositalaridan foydalanadi. Bu holat ayrim vaziyatlarda nazoratsiz yoki ortiqcha iste'molga olib kelib, addiktiv xulq shakllanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, jamiyatda ayollarning zararli odatlarni (masalan, ichkilik yoki chekishni) ochiq namoyon etishi nisbatan cheklanganligi sababli, ular stressni kamaytirishda yashirinroq va ijtimoiy jihatdan "qabul qilinadigan" vositalarga, ya'ni dori-darmonlarga murojaat qilishi mumkin.

Shuningdek, kompyuter-internetga qaramlik shkalasiga ko'ra ham erkak va ayol talabalar kesimida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi ( $U=6689,4$ ;  $p<0,05$ ). Bu erkak talabalar orasida virtual muhitga berilish, o'yinlar yoki internet faoliyatiga ortiqcha jalb etilish ehtimoli yuqoriligini anglatadi. Zamonaviy raqamli muhitda bu turdagi addiksiya ayniqsa yoshlar orasida keng tarqalayotgani bilan izohlanadi.

Bu natija zamonaviy tadqiqotlar bilan ham mos keladi, Erkaklar ko'proq kompyuter o'yinlari, texnologiyaga qiziqish, raqobat va yutuqqa asoslangan virtual faoliyatlarga jalb qilinadi. Shuningdek, erkaklarda real hayotdagi stressdan qochish mexanizmi sifatida virtual muhitga kirib ketish va vaqtni nazorat qilishdagi qiyinchiliklar. Bu esa internet addiksiyasining kuchayishiga olib keladi.

Tamaki mahsulotlarini chekishga moyillik shkalasiga ko'ra ham erkak va ayol talabalar kesimida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi ( $U=6298,2$ ;  $p<0,01$ ). Bu natija erkaklar orasida zararli odatlarning ijtimoiy jihatdan nisbatan "qabul qilinishi" va ularning xulq-atvorida ko'proq namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holat ham ijtimoiy

stereotiplar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ya'ni erkaklar orasida chekish "erkaklik belgisi" sifatida noto'g'ri talqin qilinishi yoki shunga o'xshagan har hil setriotiplar.

Giyohvand moddalariga qaramlik shkalasiga ko'ra esa erkak va ayol talabalar kesimida ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmagan bo'lsada, e'tibor beradigan bo'lsak ushbu shkala ko'rsatkichi bo'yicha erkaklarda ayollarga nisbatan yuqoriroq qiymat kuzatilgan bo'lib, hayotiy nuqatiy nazardan olib qarasa ushbu zararli addiktiv xulq ko'proq erkaklar orasida uchraydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, erkak talabalar orasida ijtimoiy-xulqiy addiksiyalar (spirtli ichimlik, tamaki, internet) sezilarli darajada yuqori namoyon bo'ladi, ayollarda esa dori-darmonlarga qaramlik kabi ko'proq ichki psixologik holatlar bilan bog'liq addiktiv xulq ustunlik qiladi. Shu bilan birga, ayrim addiktiv ko'rsatkichlar (xususan, giyohvand moddalar) bo'yicha gender farqlarining aniq namoyon bo'lmasligi ushbu xulq shakllarining murakkab, ko'p omilli tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

2-jadval

A. Karabanova va N. Poskrebysheva "Avtonomiya so'rovnomasi" ko'rsatkichlarining gender farqlar bo'yicha tahlil (Mann Uitni  $n=265$ )

|                          | Jinsi | N   | O'rtacha rang | U<br>(manuitni mezon) | P      |
|--------------------------|-------|-----|---------------|-----------------------|--------|
| Emotsional avtonomiya    | erkak | 96  | 120.5         | 7025.3                | 0.021* |
|                          | ayol  | 169 | 139.2         |                       |        |
|                          | Jami  | 265 |               |                       |        |
| Kognitiv avtonomiya      | erkak | 96  | 136.1         | 7488.7                | 0.095  |
|                          | ayol  | 169 | 125.7         |                       |        |
|                          | Jami  | 265 |               |                       |        |
| Xulq-atvor avtonomiyasi  | erkak | 96  | 140.8         | 6894.5                | 0.015* |
|                          | ayol  | 169 | 118.9         |                       |        |
|                          | Jami  | 265 |               |                       |        |
| Qadriyatlar avtonomiyasi | erkak | 96  | 122.3         | 7156.9                | 0.028* |
|                          | ayol  | 169 | 138.6         |                       |        |
|                          | Jami  | 265 |               |                       |        |

Izoh: \* $p<0,05$ .

Mazkur tadqiqot natijalari A. Karabanova va N. Poskrebysheva tomonidan ishlab chiqilgan "Avtonomiya so'rovnomasi" shkalalari asosida talabalarda psixologik avtonomiya komponentlarining gender jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Man - Uitni U mezoni yordamida olingan natijalar psixologik avtonomiyaning ayrim tarkibiy qismlarida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Emotsional avtonomiya shkalasiga ko'ra erkak va ayol talabalar kesimida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi ( $U=7025,3$ ;  $p<0,05$ ). Tahlillar natijasida emotsional avtonomiya ko'rsatkichi bo'yicha ayol talabalarining erkaklarga nisbatan yuqoriroq natijalarni namoyon etgani aniqlandi. Ushbu holat ayollarda emotsional jarayonlarning chuqurroq anglanishi, his-tuyg'ularni differensial tarzda idrok etish hamda ularni boshqarish qobiliyatining nisbatan rivojlanganligi bilan izohlanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ayollar ijtimoiylashuv jarayonida emotsional kompetentlikka ko'proq yo'naltiriladi, bu esa ularning ichki kechinmalarni qayta ishlash va emotsional mustaqillikni shakllantirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu ko'rsatkich ayollarda psixologik moslashuv va stressga bardoshlilikning muhim komponenti sifatida namoyon bo'ladi.

Kognitiv avtonomiya shkalasiga ko'ra erkak va ayol talabalar kesimida ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi ( $U=7488,2$ ;  $p>0,05$ ). Bu natija mazkur yosh davrida talabalarining mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va muammolarni tahlil etish qobiliyatlari asosan ta'lim jarayoni, intellektual rivojlanish hamda individual tajriba bilan belgilanishini ko'rsatadi. Ya'ni, kognitiv avtonomiya gender

omiliga nisbatan kamroq bog'liq bo'lib, ko'proq universal rivojlanish qonuniyatlariga asoslanadi. Shu bilan birga, erkaklarda mustaqil qaror qabul qilishga intilish, ayollarda esa ijtimoiy fikrlarni inobatga olishga moyillik kuzatilishi mumkin, biroq bu farqlar statistik darajada ishonchli emas.

Xulq-atvor avtonomiyasi shkalasiga ko'ra esa erkak va ayol talabalar kesimida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi ( $U=6894,5$ ;  $p<0,05$ ). Xulq-atvor avtonomiyasi ko'rsatkichi bo'yicha erkak talabalarda ayollarga nisbatan yuqori natijalar qayd etildi. Bu erkaklarning o'z xatti-harakatlarini mustaqil tarzda boshqarish, tashqi ijtimoiy nazorat va bosimlarga nisbatan kamroq bo'ysunish hamda erkinlikka intilish darajasi yuqoriligini anglatadi. Mazkur natija erkaklar ijtimoiylashuvi jarayonida mustaqillik, tashabbuskorlik va riskka moyillik kabi sifatlarning rag'batlantirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, xulq-atvor avtonomiyasining yuqoriligi ayrim hollarda impulsiv qarorlar va riskli xulq shakllarining yuzaga kelishiga ham zamin yaratishi mumkin.

Qadriyatlar avtonomiyasi shkalasiga ko'ra ham erkak va ayol talabalar kesimida ishonch darajasidagi farqlar kuzatildi ( $U=7156,5$ ;  $p<0,05$ ). Qadriyatlar avtonomiyasi bo'yicha ayol respondentlar erkaklarga nisbatan yuqoriroq natijalarni ko'rsatgan va bu farq statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi. Bu ayollarda shaxsiy qadriyatlar tizimi, axloqiy me'yorlar va hayotiy prinsiplarning nisbatan barqaror va ichki motivatsiyaga asoslangan holda shakllanganligini anglatadi. Ayollar ko'proq ijtimoiy munosabatlar, oila, hamkorlik va emotsional yaqinlik kabi qadriyatlarga tayanadi, bu esa ularning qaror qabul qilishida ichki mezonlarga suyanishiga olib keladi. Erkaklarda esa qadriyatlar ko'proq tashqi

muvaffaqiyat, mustaqillik va o'zini namoyon qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bu esa ayrim hollarda qadriyatlar tizimining moslashuvchanroq bo'lishiga olib keladi.

Mazkur holat psixologik rivojlanish jarayonida biologik, ijtimoiy va madaniy omillarning o'zaro ta'siri mavjudligini tasdiqlaydi hamda yoshlar bilan olib boriladigan psixologik ishlar, xususan, profilaktika va rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishda gender xususiyatlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tadqiqot natijalari talabalarda psixologik avtonomiya va addiktiv xulq-atvor o'rtasida muhim bog'liqlik mavjudligini hamda bu jarayonda gender omili sezilarli rol o'ynashini ko'rsatdi. Xususan, erkak talabalar orasida spirtli ichimlik iste'moli, tamaki chekish va internetga qaramlik kabi ijtimoiy-xulqiy addiktsiyalar yuqori darajada namoyon bo'lishi aniqlangan bo'lsa, ayol talabalarda

dori-darmonlarga qaramlik ko'rsatkichi ustunlik qilishi kuzatildi. Bu holat ayollarning emotsional sezgirligi va ichki kechinmalarga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, psixologik avtonomiya komponentlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ayollarda emotsional va qadriyatlar avtonomiyasi nisbatan yuqori rivojlangan bo'lsa, erkaklarda xulq-atvor avtonomiyasi ustunlik qiladi. Kognitiv avtonomiya bo'yicha esa sezilarli gender farqlari aniqlanmadi, bu esa mazkur komponentning universal rivojlanish xususiyatiga ega ekanligini bildiradi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, addiktiv xulq-atvorni oldini olish va psixologik sog'lomlikni ta'minlashda yoshlarning gender xususiyatlarini inobatga olish zarur. Shu asosda psixologik profilaktika va korreksion dasturlarni ishlab chiqish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari.
2. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986.
3. Deci E.L., Ryan R.M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017.
4. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton, 1968.
5. Элькин Д.Г. Восприятие времени. М.: АПН РСФСР, 1962.
6. Гебсаттель В. Э. Мир компульсивного // Экзистенциальная психология. Экзистенция. — М.: Апрель-Пресс, ЭКСМО-Пресс, 2001. С. 287–307.
7. Friedman W. J., Janssen S. Aging and the speed of time // Acta Psychologica. 2010. Vol. 134, no. 2. Pp. 130–141.
8. Karabanova A., Poskrebysheva N. Psixologik avtonomiya so'rovnomasi metodikasi.
9. Lozovaya V.G. Addiktiv xulq-atvorni diagnostika qilish metodikasi.
10. Менделевич В.Д. Психология зависимого поведения. - Москва: МЕДпресс, 2007.